

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

3-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

B.E.Madaliyev	
Talabalarda axboriy-analitik kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari.....	115
N.R.Mansurova	
Zamonaviy oliy ta'limda musiqiy aksiologik yondashuvdan foydalanishning pedagogik asoslari	120
M.M.Maxamadjonova	
Oliy ta'lim talabalarida mediasavodxonlikni shakllantirishning pedagogik ahamiyati.....	129
I.I.Soliyev	
Yangi O'zbekistonda oliy ta'lim muassasalari boshqaruviga xalqaro standartlarni joriy qilish metodologiyasi	132
D.D.Mirzaakbarov	
Koreys tilini mustaqil o'rganishdagi muammolar va ularni bartaraf qilishda zamonaviy texnikaning ro'li	136
A.Y.Axmedov	
Kommunikativ kompetensiya bo'lajak psixologlarning kasbiy rivojlanishining hal qiluvchi omili sifatida	141
N.B.Dusimbetova	
Jurnalistika yo'nalishi talabalari kompetensiyasi: ko'nikma va bilimlarning ahamiyati	146
S.T.Aldasheva	
Mediata'lim vositasida bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining informatsion-analitik kompetentligini rivojlantirishning pedagogik ahamiyati	151
A.T.Nazarov	
Yangi O'zbekistonda bo'lajak jismoniy tarbiya fani o'qituvchilarini sport turizmiga doir bilimlarini rivojlantirish holati tahlili	154
U.K.Rahmonov	
Bo'lajak tarbiyachilarning estetik kompetentligini rivojlantirishning pedagogik bosqichlari va komponentlari.....	158
A.R.Saydullayeva	
Bo'lajak pedagoglarda gender madaniyatni rivojlantirishning pedagogik mohiyati va psixologik asoslari.....	162
U.Sh.Abduraximova	
Bo'lajak tarjimonlarning lingvomadaniy va kommunikativ kompetentligini rivojlantirish modeli.	168
S.A.Mahmudova	
Bo'lajak pedagoglarning ijtimoiy-kreativ kompetentlik darajasini aniqlashda psixodiagnostik yondashuv va tamoyillardan foydalanish.....	172
J.O.Amirov	
Yosh futbolchilarni koordinatsion qobiliyatlarini rivojlantirishning metodologik asoslari.....	176
G.T.Xusanova	
Boshlang'ich sinflarda zid ma'noli so'zlar ustida ishlash usullari.....	180
X.O.Pardayeva	
Kredit- modul ta'lim tizimi jahon tajribasi	184
M.Barakayev, M.Nasritdinov	
Ta'limni raqamlashtirish shartitida o'quvchi-talabalarni noxiziq fikrlashga o'rgatish imkoniyatlari.....	191
Sh.O.Aripov	
O'g'il bola tarbiyasi va oilaviy munosabatlarni rivojlanish tendensiyalarining tarixi.....	195
M.M.Mirzakarimova, M.D.Uzoqjonova	
Ekologik ta'lim-tarbiyani takomillashtirish omillari	200
D.T.Nishonova	
Jismoniy tarbiya tizimida sog'lom turmush tarzini shakllantirish yo'llari.....	205
S.T.Xakimov, Sh.Xudoyqulov	
Gimnastika maxsus mashqlari orqali o'quvchilarning jismoniy sifatlarini rivojlanishini kompleks nazorat qilish.....	213
X.X.Abdurahmov	
Yengil atletika mashg'ulotlarida jismoniy sifatlarini rivojlantirish.....	218
M.M.Turg'unov	
Aksiologik yondashuv asosida talabalarni pedagogik faoliyatga tayyorlash metodikasi.....	223



UO'K: 378:37.02:78.01:37.035

**ZAMONAVIY OLIY TA'LIMIDA MUSIQIY AKSIOLOGIK YONDASHUV
FOYDALANISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI****ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МУЗЫКАЛЬНОГО
АКСИОЛОГИЧЕСКОГО ПОДХОДА В СОВРЕМЕННОМ ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ****PEDAGOGICAL PRINCIPLES OF USING THE MUSICAL AXIOLOGICAL APPROACH IN
MODERN HIGHER EDUCATION****Mansurova Nigoraxon Rustamjonovna**

Farg'ona davlat universiteti Vokal va cholg'u ijroshiligi kafedrasini o'qituvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqola o'zbek milliy musiqiy merosini o'rganish va unga oid bilimlarni aksiologik qadriyatlar asosida rivojlantirishning asosidagi Pedagogik asoslari haqida bo'lib, mazkur maqolada milliy musiqiy merosni qadriyatli yondashuvlar asosida yangi Pedagogik uslublar asosida yoritib berilgan. Ushbu maqolada zamonaviy musiqa ta'limida aksiologik yondashuvdan foydalanishning ahamiyati, samaradorligi, imkoniyatlari va zaruratini yoritish maqsad qilingan. Shu ma'noda aksiologik yondashuvning mazmuni, tarflanishi va Pedagogik jarayonda qo'llanishi va usullarini ko'rib shiqish talab etiladi.

Аннотация

В данной статье речь идет о педагогических основах изучения узбекского национального музыкального наследия и развития связанных с ним знаний на основе аксиологических ценностей. Целью данной статьи является освещение важности, эффективности, возможностей и необходимости использования аксиологического подхода в современном музыкальном образовании. В этом смысле необходимо рассмотреть содержание, классификацию и методы аксиологического подхода в педагогическом процессе.

Abstrast

This article deals with the pedagogical foundations of the study of the Uzbek national musical heritage and the development of related knowledge based on axiological values. The purpose of this article is to highlight the importance, effectiveness, possibilities and necessity of using an axiological approach in modern music education. In this sense, it is necessary to consider the content, classification and methods of the axiological approach in the pedagogical process.

Kalit so'zlar: Milliy musiqa san'ati, milliy musiqiy meros, milliy musiqiy aksiologiya, mumtoz musiqa san'ati, qadriyatlar, musiqiy ta'lim, pedagogic aksiologiya

Ключевые слова: Национальное музыкальное искусство, национальное музыкальное наследие, национальная музыкальная аксиология, классическое музыкальное искусство, ценности, музыкальное образование, педагогическая аксиология

Key words: National music art, national musical heritage, national musical axiology, classical music art, values, musical education, pedagogical axiology

KIRISH

Bugungi kunda bo'lajak kadrlarni tayyorlashda, ularning kasbiy bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishda qadriyatli yondashuvdan foydalanish dolzarblik kasb etmoqda. Ayniqsa, bo'lajak pedagoglarni tayyorlash jarayoniga innovatsion texnologiyalarini keng joriy etish, aksiologik yondashuv asosida talabalarning milliy musiqiy merosni asrab avaylashga doir bilimlarini rivojlantirishga ham alohida e'tibor qaratilmqoda. Shuningdek, talabalarning bo'lajak kadr sifatida pedagogik faoliyatni amalga oshirishga tayyorligi va qobiliyatini aks ettiruvchi integrativ o'ziga xoslik sifatida aksiologik yondashuvdan foydalanishning imkoniyatlari, pedagogik asoslari va ijtimoiy zaruratini tahlil qilish zaruratini yuzaga keltiradi.

Shu bois ham talabalarda milliy musiqiy merosni asrab-avaylashga doir bilimlarini rivojlantirishda aksiologik yondashuvdan foydalanish, bu asosida milliy musiqiy merosga qadriyatli munosabatni shakllantirish, qadriyatli ong asosida musiqa madaniyatini rivojlantirish zarurati ortib

PEDAGOGIKA

bormoqda. Buning uchun esa, eng avvalo jamiyatda musiqiy madaniyatni shakllantirish, dunyoqarashni rivojlantirish talab etiladi.

Musiqiy madaniyat o'zining serqirraliligi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, o'zining chuqur ildizlari qadimgi davrlarga yetib boradigan o'zbek xalqining boy musiqa merosi hozirgi kundalik xayotimizdan ham tushgani yo'q. U xalq ijodining yuksak namunalari, folklyor ijrochiligi, kuy tuzilishi, mazmunan rivojlangan cholg'u va ashula asarlari, doston ijroshiligi hamda murakkab ijrochilik turkumi deb atalmish maqom musiqasini o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, xalq musiqiy madaniyatida o'zlarining barcha davrlarda sezilarli xissalarini qo'shib kelayotgan xalq bastakorlarining ijodi ham salmoqli o'rin tutadi.

ADABIYOTLAR TAXLILI VA METODLAR

Hozirgi vaqtda aksiologik yondashuvga qiziqish ijtimoiy-madaniy muhitdagi o'zgarishlarning yuzaga kelishi bilan bog'liq. Jamiyatdagi o'zgarishlar bilan bog'liqlikda yangi qadriyatlarni izlash aynan ijtimoiy beqarorlik mavjudligi sharoitida alohida ahamiyat kasb etadi. V.R.Zinshenko XX asr umuminsoniy qadriyatlarining eng yuqori darajada qadrsizlanish davri deb aytish mumkinligini ta'kidlab o'tadi⁵. Ana shu sababli yangi ming yillikda ilmiy jamoatchilik insoniyat tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan qadriyatlarni aniqlash, tartibga solish va tizimlashtirishga faol harakat qilmoqda. Bu jarayon ta'limga ham ta'sir ko'rsatmoqda. Ya'ni ta'limda aksiologik yondashuvdan foydalanish asosida fanga, ilmiy yondashuvlarga va yoki ilmiy jarayonga qadr tuyg'usi bilan qarash va unga ergashish ehtiyojlarini yuzaga keltirmoqda.

Pedagogik jarayonda ma'lum bir muammoga alohida e'tibor qaratish, ma'lum bir bilim yoki ko'nikmani shakllantirishga qadriyatli munosabatni yuzaga keltirishda aksiologik yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Ilmiy bilishda olam, undagi narsa, voqea, hodisa va boshqalar qadriyatning inson ongida aks etishi, qadriyatni anglashning reallikka mos kelish qonunlari, daraja va imkoniyatlari, uning me'yor va mezonlarini aniqlash nihoyatda muhim. Bunga umumiy bilish ilmi bilan bir qatorda ijtimoiy va tabiiy fanlarning ma'lumotlariga, ayniqsa, oliy asab sistemasining fiziologiyasi, hissiyot organlari va aqliy faoliyatining dalillariga, mantiq, tilshunoslik kabi fanlarning yutuqlariga tayaniladi. Qadriyatlarni anglash, o'rganishda hissiy va aqliy bilishning uyg'unligi, hukm, xulosalarning tuchunsha, atama va belgilarni umumlashtirishi, tabiiy va ijtimoiy voqelikdagi aksiologik jarayonlarni tahlil qilish, ularga tayanib amaliy faoliyat yuritish bir-biri bilan bog'liq uzviy jarayonni anglatadi.

Talabalarda milliy musiqiy merosni asrab-avaylashga doir bilimlarini oshirishda o'zbek musiqiy merosi va madaniyatiga qadriyatli munosabatni shakllantirish va bu asosida musiqiy mersoni asrashga doir aksiologik faoliyatni yo'lga qo'yishni ko'zda tutadi.

Aksiologik yondashuv ham ilm-fanga, o'zgarishlarga va ta'limga qadriyatli munosabatni namoyon qilishga asoslanadi. Misol uchun, qurol-yarog'larni takomillashtirish, atom-yadro sohasidagi kashfiyotlar ham ilmiy bilish chegarasini kengaytiradi. Biologik va kimyoviy jarayonlarning yangi qirralarini ochish, genlar injeneriyasi, psixoterariya sohasidagi tadqiqotlar ham bilimlarga bilim qo'shmoqda. Ammo ularning inson hayoti uchun ahamiyati qanday? Ular haqiqiy qadriyatlarga xizmat qiladimi? Bu sohalarda yangilikning yoki foydaning qo'lga kiritilishi natijasida umuminsoniyatga yaxshilik keltiradimi? Ba'zi iqtisodiy foydalarning qadri nihoyatda oz, ular aslida insoniyatga ziyon keltirish emasmi? Bu muammolarga aksiologik yondashuv ularni to'g'ri anglash imkonini beradi. Yangi yerlarni o'zlashtirish, daryolarni o'z o'zanidan boshqa yoqqa burish, tibbiy muolajada qisqa muddat foydali bo'lgan ba'zi dori-darmonlardan (doping) foydalanish borasida aksiologik yondashuvga asoslanilmaganligi to'g'risida ko'plab misollar keltirish mumkin. Ammo, afsuski, jahonning ba'zi joylarida xaligacha bu sohalarga g'ayriaksiologik qarash mavjudligini, bunda ko'rroq iqtisodiy foyda olish va kundalik maqbullikning orqasidan quvish ustuvor bo'layotganligini alohida ta'kidlash lozim. Butun jahonda bunday yo'ldan borishning halokatli ekanligi ehtirot etilmoqda va rivojlanishning samarali yo'llari taklif qilinmoqda.

Demak, insoniyat foyda bilan birga qadrga ham ko'proq e'tibor berishi lozimligini asta-sekin anglab olmoqda. Lekin bu jarayon nihoyatda sekin amalga oshmayartimi? Harbiy qurollarning yangi nusxalarini, ularni olib uchadigan raketa va samolyotlarning yangilarini ko'z-ko'z qilishga, ularni sotib, millionlab foyda olayotgan mamlakatlarning yutuqlariga mahliyo bo'layotgan insoniyat qadrlash va haqiqiy qadri mahvolarga intilishda imkoniyatlarni qo'ldan boy berayotgani yo'qmi? Bu

⁵ Зинченко В.П. Человек развивающийся. Очерки российской психологии. – М.: Тривола, 1994. –С.304.

muammolar ham ijtimoiy hodisa va jarayonlarga aksiologik yondashishning mohiyati, amaliy ahamiyati va qadrini yanada kengroq izohlab berishni, bu usulni ommaviylashtirish zaruriyatini vujudga keltiradi.

Bugungi kunda har bir xalq oldida qadriyatlarni asrab-avaylash, ularga yangicha munosabatni shakllantirish va bu asosida ularning yashocshanligini shakllantirish kerakligi kelib chiqmoqda. Shu ma'noda musiqiy meros ham xalqning milliy qadriyati sifatida aksiologik munosabatga va bunday yondashuv asosida shakllangan yangisha munosabatga loyiq. Buni amalga oshirishning eng samarali yo'li ham ta'limga aksiologik yondashuvni olib kirish, musiqa ta'limi orqali milliy musiqiy merosga qadriyatli munosabatni shakllantirish hisoblanadi. Talabalarda milliy musiqiy merosni asrab-avaylashga doir bilimlarini rivojlantirish orqali talabalarda milliy musiqiy merosga qadriyatli munosabatni shakllantirish mumkin bo'ladi. O'quvchi-yoshlarda va talabalarda o'zbek milliy musiqiy merosiga doir bilimlarini rivojlantirish orqali jamiyatda musiqiy madaniyatni shakllantirish va aksiologik mas'uliyatni rivojlantirish mumkin bo'ladi.

Milliy madaniyatimizni yuksaltirishda, jamiyat a'zolarining dunyoqarashini kengaytirishda, fikrlash qobiliyatini o'stirishda milliy musiqamizning va an'anaviy ijrodagi qo'shiqlarimizning o'рни beqiyosdir. Milliy musiqa durdonalari va an'anaviy qo'shiqlarimiz avvaldan xalqimiz orasida ardoqlanib, og'izdan-og'izga o'tib, kuylanib, sozlar orqali chalinib kelingan va ularni katta tarbiyaviy axamiyatga ega ekanligini bilamiz. Mumtoz kuy va qo'shiqlarimiz milliy tafakkurni ma'naviy kamol toptirishda asosiy vosita sanalgan. Xalqning og'ir kunida xam, shodlik, xursandshilik paytlarida xam doimo hamrox bo'lgan. Shirali kuy, yoqimli ovoz o'z ta'sirshanligi bilan inson qalbiga sirli xayajon soladi, uning ruxiyatini tetik qiladi. Ulug' mutafakkir shoir Sa'diy Sheroziy kuy va qo'shiqni «Rux ozuqasi» deb atagan ekan. Shuning uchun xam kishi yaxshi bir kuy yoxud qo'shiq tinglaganida jaxolatdan yiroqlashadi, qalbini yaxshilik tug'yonlari qamrab oladi. Muhabbat, sadoqat, insoniylik, go'zallik kabi yuksak darajadagi insoniy xis-tuyg'ularni qalban xis qiladi. Musiqa shunday ajoyib san'atki, uning uchun xech qanday til to'sig'i yo'q, tarjimonga muhtoj emas. Musiqa shunday ajoyib shifobaxsh fazilatlariga egaki, buni o'z navbatida Abu Nasr Muxammad al-Farobiy, Abu Ali ibn Sino kabi ulug' daholar o'z asarlarida ta'riflab berganlar⁶. Musiqiy merosga mana shunday aksiologik munosabatni shakllantirish va uning oziqlantiruvchi, forig'lovchi xususiyatlaridan foydalanish ijtimoiy jarayonda qadriyatga yo'nalgan faoliyatni yuzaga chiqaradi.

Tadqiqotchi olim T.Rarsonsning "Ijtimoiy harakatlarning tuzilishi haqida" deb nomlangan asarida qadriyat va qadriyatga yo'nalganlik tuchunchalari o'rtasidagi aloqadorlik ajratib ko'rsatilgan. Ya'ni, sosium madaniyatida etalonlarga intilishning namoyon bo'lishi asosida jamiyatning funksional ehtiyojlari yuzaga chiqadi⁷.

Qadriyatga yo'nalganlik shuningdek, o'z ichiga individning hayotiy tajribalari va orzu-armonlarini ham qamrab oladi. Ana shu sababli qadriyatga yo'nalganlik o'ziga xos psixologik tavsifga ega bo'lib, shaxs tuzilishining barcha komponentlari va yaxlit tizimini aks ettiradi.

Pedagogik aksiologiyaga doir adabiyotlarda "qadriyatli ustanovka" tuchunchasi ham ushraydi. Garchi ko'pchilik mualliflar "qadriyatli yo'nalganlik" va "qadriyatli ustanovka" tuchunchalarini sinonim sifatida qo'llashsa ham, birinchilardan bo'lib M.Rokich ular orasidagi farqni alohida ajratib ko'rsatgan. Amerikalik olimning fikricha, ustanovkani ma'lum bir ob'yekt (konkret yoki abstrakt, shaxsiy yoki ijtimoiy)ga yoki vaziyatga nisbatan sub'yekt munosabatida aks etuvchi uzoq vaqt davomida shakllangan bir qancha ishonch, e'tiqodlar majmui deb qarash mumkin⁸. Demak, yo'nalganlik shaxsning jamiyatdagi me'yorlar bilan inson ehtiyojlari uyg'unlashuvi aks etsa, qadriyatli ustanovkada shaxsning amaliy faoliyatda mazkur munosabatlari tizimini ro'yobga chiqarishga tayyorligi aks etadi.

Pedagogik aksiologiya ma'lum bir ob'yektni qadriyaviy prizma asosida ko'rish, qadriyatli munosabatni hosil qilish asoslari, unga berilgan bahoning xususiyatlari asosida yondashishga asoslanadi. Pedagogik aksiologiya sohasida tadqiqotlar olib borgan olim B.Xodjayevning ta'kidlashicha, shaxsning o'z ichki pozitsiyasini anglashi va aniq qadriyatlar bilan bog'liqlikda amaliy faoliyatga tayyorligi qadriyatli ustanovkaning mohiyatini belgilab beradi. Ustanovka shaxsning aniq faoliyatga tayyorgarlik holatini aks ettiruvchi kognitiv (bilim, axborot) va affektiv (emosiya, hissiyot)

⁶Маннопов С. Ўзбек халқ мусиқа мданаяти. –Тошкент.: Янги аср авлоди. 2004. –Б. 84.

⁷ Парсонс Т.О структуре социального действия. – 2-е изд. – Москва.: Академический проект, 2000. – С. 200-203.

⁸ Rokeach M. The role of values in public opinion research // The Public Opinion Quarterly. Vol. 32. No. 4. – P. 547-559.

komponentlar majmui sifatida namoyon bo'radi⁹. Demak, talabalarda milliy musiqiy merosni asrab-avaylashga doir bilimlarini rivojlantirishda musiqa ta'limida aksiologik yondashuvdan foylanish, talaba shaxsiga qadriyali munosabat va bahoni bera oluvchi dunyoqarashni shakllantirish talab etiladi. Shu bilan birga talaba shaxsini qadriyatli faoliyatga tayyorlash ham muhim ahamiyat kasb etadi.

NATIJALAR

Aksiologik yondashuvning tadqiqiy maqomi talabalarda milliy musiqaga doir bilimlarni rivojlantirishning tizimli modelida turli xil vazifalarni amalga oshirish imkonini beradi: gnostik (akmeologik motivatsiyani rivojlantirish uchun ijtimoiy ahamiyatli qadriyatlarni aniqlash); yo'naltiruvchi (akmeologik motivatsiyani rivojlagntirishga doir ehtiyojlarni qondirish uchun zarur qadriyatlarni tanlab olish); informasion (akmeologik motivatsiyani rivojlantirishga doir qadriyatlarning xilma-xilligidan xabardor bo'lish); baholovchi (ijtimoiy va shaxsiy qadriyatlar o'rtasida o'zaro aloqadorlikni hosil qilish); texnologik (ijtimoiy va shaxsiy qadriyatlar tizimini shakllantirish yo'llari, metod va vositalarini aniqlashtirish); integrativ (Pedagogik jarayonning ijtimoiy ahamiyatli qadriyatlari va ta'lim oluvchilarning shaxsiy talablarini o'zaro uyg'unlashtirish)¹⁰. Mazkur funksiyalarni amalga oshirish nafaqat ijtimoiy va shaxsiy qadriyatlar tizimini shakllantirish, balki har bir musiqa ta'limi talabasi shaxsida ularni qaror tortirish yo'llarini izlab torishga imkon beradi.


Aksiologik yondashuvning asosiy tamoyillari sifatida quyidagilar aniqlashtirildi:

- shaxsda qadriyatlar tizimini shakllantirishni talab etuvshi ijtimoiy va shaxsiy omillarni integratsiyalash tamoyili. Mazkur tamoyil talabalarda milliy musiqiy merosni asrab-avaylashda ijtimoiy va shaxsiy qadriyatlarni uyg'unlashtirish, ular o'rtasidagi yaxlitlikni ta'minlashni talab etadi;
- ijtimoiy faollik tamoyili. Mazkur tamoyil talabalarda milliy musiqiy merosni asrab-avaylash uchun muhim va zarur ahamiyatga ega bo'lib, jamiyatda, shu jumladan, san'at olamida sodir bo'layotgan ob'yektiv o'zgarishlar bilan bog'liqlik musiqa ta'limi talablarining ijtimoiy faolligini rivojlantirishni talab etadi.

Talabalarda milliy musiqiy merosni asrab-avaylashga doir bilimlarini rivojlantirishda ulardagi aksiologik ong va bahoning to'g'ri yo'naltirilganligini bilish lozim. Aksiologik ong ijtimoiy ongning mahsus shakli bo'lib, olam, voqelik va hayotni qadrlash tuyg'usi asosida o'ziga hos tarzda aks ettiradi. Zero, insonda olam, tabiat, jamiyat va o'zga odamlarni, hayot va boshqalarni qadrlash tuyg'uri bor. Bu tuyg'u ularning qadrini anglab olish, qadriyatni idrok qilish, uning ahamiyatini his qilish kabi insoniy hususiyatlar bilan uyg'unlashib ketgan. Odam zoti olam xodisalariga nafaqat baho beradi, balki ularga qadr va qadrlash nuqtai nazardan ham qaraydi. Insoniy qadrlash tuyg'usi kishining narsa-xodisalarni oddiy baholashdangina iborat emas, balki, qadriyatli yondashuv asosida shakllanadigan serqirra ma'naviy hususiyatdir. Shu ma'noda, u inson zotining eng botiniy ma'naviy xislatlaridan biridir.

⁹ Ходжаев Б. Педагогик аксиология. – Тошкент.: “Fan va texnologiya”, 2012. – Б.17.

¹⁰ Яковлев Е.В. Реализация аксиологического подхода в педагогическом исследовании // Вестник ЮУрГУ. Серия: Образование. Педагогические науки. – 2012. – № 4(263). – С. 26-29.



1.1-rasm. Aksiologik yondashuvning asosiy tamoyillari

Qadriyatlarga va qadrlash tuyg'usiga asoslangan aksiologik qarashlar ilmiy jihatdan asoslangan, nazariy tahlil qilingan, muayyan prinsir asosida to'plangan bilimlar sistemasini ifodalaydi. Ular qadriyatlar sohasida olib borilgan tadqiqotlar, ilmiy izlanishlar, bu boradagi nazariyalar, kitob va risolalarda o'z aksini toradi. Tugallangan, ozmi-ko'rmi mukammal, izchil bayon qilingan va qadriyatlar tuyg'usidagi sistemaga ega bo'lgan aksiologik qarashlar majmuasi - qadriyatlar nazariyasi, deb yuritiladi. Aksiologik qarashlar tarixida qadriyatlar, ularning shakllari va amal qilish xususiyatlari to'g'risida bir qator nazariya va aksiologik konsersiyalarni uchratish mumkin.

Milliy musiqiy merosni asrab-avaylashga hizmat qiluvshi aksiologik ong o'z navbatida aksiologik xissiyot, aksiologik idrok, qadrlash tuyg'usi, aksiologik kechinmalar, qadriyat mazmunini ifodalaydigan tuchuncha, xulosa va tafakkur bilan uzviy bog'liqdir. Kimdadir aksiologik idrok va qadrlash tuyg'usi boshqalardan ko'ra kuchliroq namoyon bo'lishi, uning qalbida qadrlash tuyg'usi bilan bog'liq hissiyot ko'proq "g'alayon" qilishi mumkin. Bunday kishida muayyan qadriyatni qadrlash bilan bog'liq mas'uliyat va unga asoslangan faoliyat ham boshqalarga qaraganda yaqqolroq ko'zga tashlanib turishi tabiiy.

Shuningdek, talabalarda milliy musiqiy merosni asrab-avaylashga doir bilimlarni rivojlantirishda kognitiv tamoyili muhim ahamiyatga ega bo'lib, unda aksiologik bilishga asoslanadi. Aksiologik bilishda qadrlash tuyg'usi va aksiologik idrok muhim ahamiyat kasb etadi. Qadrlash tuyg'usi aksiologik ongning eng asosiy komponentlaridan biridir. U tabiiy va ijtimoiy hodisalarning qadrini anglash, zavq olish, lazzatlanish, ma'suliyat hissini sezish va boshqalarda namoyon bo'ladi. Olam va odam o'z ahamiyati bilan qadrlidir. Olamdagi narsalar va predmetlar, hodisa va jarayonlar odamlar uchun qadrlash tuyg'usini uyg'otuvchi asosdir.

Talabaniq musiqiy dunyoqarashining aksiologik shakli qadriyatli yondashuv, aksiologik munosabat, aksiologik baholash kabilarni qamrab oladi. Umumiy dunyoqarash sistemasiga aksiologik dunyoqarash elementlari qo'shilishi bilan ijtimoiy sub'ektlarning voqelikka munosabatida qadrlash tuyg'usi, qadriyatli munosabat va aksiologik baho yaqqol ko'zga tashlana boshlaydi. Bunda aksiologik prinsirlar kishilarning voqeilikka munosabatlarini, bir-birlariga nisbatan o'zaro aloqalarini tartibga soluvchi ma'naviy mezonlar sifatida namoyon bo'ladi. Ular kishilarning faoliyatlarini amalga oshirishdagi manfaat va maqsadlarida ham ko'zga tashlanadi.

Biror bir yo'nalishga qaratilgan qadrlash tuyg'usi va bu asosdagi bilimlar, intilish, maqsad hamda manfaatlar kishilarning amaliy faoliyati uchun ma'naviy boshqaruvchanlik (regulyatorlik) vazifasini ham bajaradi. Albatta, bunda qadriyatlar bilan bog'liq omillardan tashqari boshqa sabablar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ammo, kishilarni birlashtirib, muayyan maqsadga intilishdagi umumiy faoliyatda omilkor bo'lishni ta'minlaydigan omillar orasida qadriyatlar omili etakshi o'rinni egallashi mumkin. Masalan, hozirgi davrda O'zbekistonning mustaqilligi hamda uni yanada mustahkamlash vazifalari jamiyatimizda barqarorlikni ta'minlash, demokratik tamoyillarga

PEDAGOGIKA

asoslangan hayot tarzini shakllantirish jarayonlarida qadriyatlar omili katta ahamiyat kasb etmoqda. Olamga qadriyatli munosabat shakllanishi har bir kishining yetuk inson sifatida voyaga etishi jarayonining tarkibiy qismidir. Kishi kamolot sari borar ekan o'zi, o'zgalar, tashqi muhit, olam, umr, vaqt, davr va boshqalarning haqiqiy qadrini anglash tomon boraveradi. Bu foniyl dunyoning o'tkinchiligi umrning mazmuni, yashashning maqsadi, olamning abadiyligi qarshisidagi lahzalar qadriga etishni o'rgana boradi. Bu esa mazkur kishida aksiologik munosabat shakllanishining shaxsiy jarayonini anglatadi. Aksiologik munosabat faqat yakka, alohida shaxsgagina tegishli hodisa emas. Balki u ijtimoiy guruh, qatlam, millat, davlat, jamiyatga ham tegishli bo'lishi mumkin. Ushbu ma'noda aksiologik yondashuv va qadriyatli munosabatning individual va ijtimoiy namoyon bo'lish darajalarini, alohida, xususiy va umumiy shakllarini ko'rsatish mumkin.

Milliy musiqiy mersoni asrashga doir bilimlarni rivojlantirish-nazariya va amaliyotga asoslangan ta'limdir. Bu jarayonda texnologiyadan foydalanish ta'lim sifatini oshiradi va qisqa vaqt ichida mavzuni keng tuchunta olish uchun o'qituvchining turli xil usullardan foydalanishini ta'minlaydi.

Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan oliy ta'limda milliy musiqiy mersoni o'rganishga oid kitoblar yetarli darajada emas. Natijada, kerakli manbani torishda qiyinchiliklar yuzaga keladi va milliy musiqiy merosni o'zlashtirishda o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi. Oliy ta'lim muassasalarining axborot resurs markazlarida milliy musiqiy mersga oid kitoblar borasida cheklangan tanlov mavjud, ammo ularning borida ham ma'lumotlar ko'pincha asosiy va umumiy bo'lib, o'quv dasturida berilgan materiallardan tashqari ma'lumotlar olish uchun kamlik qiladi.

Bu jarayon butun dunyo bo'ylab muhim masala sifatida ko'rilmogda. Jumladan, musiqa ta'limiga yangi texnologiyalarni integratsiya qilish bo'yicha tadqiqotlarda, ushbu kengayib borayotgan ta'lim bo'shliqlari uchun bir nechta yechimlar mavjud bo'lsa-da, 21-asrning tanqidiy fikrlash komretensiyasiga ega bo'lgan yoshlarni tayyorlash jarayonida talabalarni bilim olishga faol jalb qilishning yangi bir usuli zarur.

Bu jarayonda, raqamli texnologiyalar, xususan, internet, mobil ilovalar, multimedia mahsulotlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega va bu o'qituvchilar hamda talabalarga kerakli ma'lumotlarni oz fursatda topish va darsni qo'shimcha manbalar bilan ta'minlash imkoniyatini beradi. Bundan tashqari, agar milliy musiqiy merosni asrab-avaylashga doir bilimlarni rivojlantirishda talabalarda internet aloqasi mavjud bo'lsa, ular har qanday vaqtda bir-birlari bilan kitob va boshqa manbalarni almashinish kabi imkoniyatlarga ega bo'ladi.

Tadqiqotchilar darslarda texnologiyalarni turli darajalarda va turli mavzularda qo'llash o'qitish va o'rgatishni kuchaytirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydilar. Texnologiya o'qituvchilarga, talabalarga va o'quv dasturlariga ta'sir ko'rsatadigan butun o'quv jarayoniga qo'shimcha imkoniyat qo'shishi mumkin¹¹. Misol uchun, bugungi kunda rivojlanib kelayotgan "media-san'at" (raqamli san'at yoki yangi ommaviy axborot vositalari deb ham ataladi) sohasini keltirib o'tishimiz mumkin. Media san'atining professional sohasi elektron uskunalari, hisoblash va yangi kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanadigan san'atni o'z ichiga olgan yoki ularga murojaat qiladigan barcha ijodiy amaliyotlarni qamrab oladi. Talabalarda milliy musiqiy mersga oid bilimlarni shakllantirish shubhasiz uni kelajakka tayyorlaydi. Media san'ati asosan yoshlarning yangi ommaviy axborot vositalariga bo'lgan qiziqishidan kelib chiqqan holda, keyinshalik bu ijtimoiy aloqani kuchaytirishning samarali usuli bo'lishi va faol o'rganish vositasi sifatida xizmat qilishi mumkin. Shuning uchun ham media san'at imkoniyatlaridan talabalarda milliy musiqiy mersga doir bilimlarni rivojlantirishda foydalanish samarali usul hisobalanadi.

Texnologiyalar bilan hamnafas yurish yoshlarni madaniyat bilan bog'laydigan va oliy ta'limda an'anaviy ravishda taklif qilinadigan modellarga qaraganda yoshlarni o'rganish jarayoniga faolroq jalb qiladigan metodlarni loyihalashtirish, yaratishga ko'maklashadi hamda talabalaridagi tanqidiy fikrlashni rag'batlantiradi. Shuningdek, raqamli texnologiyalar darslardagi interfaollikni ham oshirishga xizmat qiladi. Interfaollik tuchunshasi bu yangi muhitda o'rganish haqida fikr yuritganimizda asosiy xususiyatga aylanadi. Ta'lim nazariyotchilari o'tmishda auditoriya sharoitida interaktivlikka katta e'tibor berishgan, lekin asosan guruhda muammolarini hal qilish, guruhli muhokama, qisqa namoyishlarni kiritish yoki qisqa, asossiz yozish kabi ta'lim strategiyalariga

¹¹ Efland, A., Freedman, K., & Stuhr, P.(1996). Postmodern art education: An approach to curriculum. Reston, VA: National Art Education Association.

e'tibor berishgan, mashqlar, so'ngra munozara va fikr-mulohazalar, bahs-munozaralar, muammolarni hal qilish modellari va rolli o'yinlaridan foydalanishgan¹². Hozirda esa mazkur metodlar bilan bir qatorda yangi vositalar orqali interaktivlikning o'rni va uning faol ta'lim bilan aloqasi o'rganilmoqda.

Raqamli texnologiyalarni bu jarayonda yangi yechim sifatida ko'rish mumkin. Shunki, ular foydalanish uchun yangi vositalarni taqdim etadi va milliy musiqiy mersoni asrashdagi amaliy jarayonlarning ba'zi asoslarini qayta shakllantiradi.

XULOSA

Yuqoridagilardan kelib shiqib shuni aytish joizki, zamonaviy ta'limning barcha yo'nalishlari, shu jumladan musiqa ta'limda ham raqamli texnologiyalarni integratsiyalashga bo'lgan talab tobora ortib bormoqda.

Raqamli texnologiyalarni talabalarda milliy musiqiy merosni asrashga doir bilimlarni rivojlantirishda qo'llash borasida fikr yuritilganda, ularning vazifasi, ta'lim mazmuniga mosligi va talabalarda shakllantirilishi lozim bo'lgan komretensiyalar bilan bog'liqligini inobatga olish zarur.

Xususan, Rerrlarning fikrisha raqamli texnologiyalarning tarkibiy qismi bo'lgan media san'atini yaratish uchun muhim ushta keng tuchunchalar mavjud:

- o'quv jarayonida faol ishtirok etish;
- yoshlarning o'zlarining ishi bilan shaxsiy aloqasi, bu o'rganishga umumiy muhabbatni uyg'otadi va avvalgi tajribalariga asoslanadi;
- keng jamoatchilik uchun muhim bo'lgan loyihalarni yaratish¹³.

Shuningdek, raqamli texnologiyarni tasniflashda uning xususiyatlarini ham inobatga olish zarur. Raqamli texnologiyalar ta'rifi barcha elektron vositalarni, avtomatik tizimlarni, texnologik qurilmalarni va ma'lumotlarni ishlab chiqaradigan yoki saqlaydigan resurslarni o'z ichiga oladi. Analog va raqamli texnologiyalarning farqi shundaki, analog texnologiyalarda ma'lumotlar ko'p amplitudali elektr ritmlariga aylanadi, raqamli texnologiyalarda esa ma'lumotlar ikki raqam, ya'ni 0 va 1 dan iborat tizimga aylantiriladi.

Nazariy darslarda foydalanish uchun raqamli texnologiyalar:

E-kitoblar. E-kitoblarning asosiy ta'rifi uning xususiyati va darajasi bilan farq qiladi. "Oksfordning ilg'or talabani lug'ati"da (2011) elektron kitobga "qog'ozga bosish o'rniga kompyuter ekranida yoki qo'lda ushlab turiladigan elektron qurilmada ko'rsatiladigan kitob. Bu bir neshta elektron formatlari mavjud"¹⁴.

WEB sahifalar. Bugungi kundagi aksariyat wyeb sahifalar WEB 2.0 tizimida ishlaydi. WEB 2.0 vositalarining misollari ko'pchilik uchun tanish, shunki hordiq va shaxsiy aloqa uchun bunday vositalardan hamma joyda foydalaniladi: YouTube, Skype, Fasebook, Google Doss, WordRress, Blogger, Wikiredia va Radlet. Wyeb 2.0 bizga izohlar, real vaqtda matn, audio yoki video muhokamalar yuborish kabi imkoniyatlar bilan o'zaro aloqada bo'lishimizga yordam beradi. Bu bizga real vaqt rejimida kichik guruh yoki butun dunyo bo'ylab ma'lumotlarni baham ko'rishga imkon beradi va ikki tomonlama aloqani ta'minlaydi¹⁵.

Web sahifalarning yana bir foydali tomonini ko'p yillik tajribalarimizda ham ko'rishimiz mumkin. Misol uchun, odatda o'tiladigan mavzuga taqdimot yoki videomaterial tayyorlaymiz va kompyuter yordamida ularni talabalar bilan ulashamiz. Ammo, aksariyat hollarda taqdimot yoki videomaterialni namoyish etish jarayonida ularni o'qiydigan ilovalardagi xilma-xillik sababli fayllarimizni ochishni imkoni bo'lmaydi. Wyeb sahifalarga joylangan materiallarni esa qisqa vaqt ishida oshish va ulashish mumkin, Bu bizga vaqtni tejashda katta yordam beradi.

Bloglar. Blog - bu doimiy ravishda yoziladigan, bir yoki bir nechta mavzuga murojaat qilishi mumkin bo'lgan kundalik turidir. Britannisa Ensylorædia blog atamasiga "shaxs, guruh yoki korporatsiya faoliyati, fikrlari yoki e'tiqodlari haqidagi ma'lumotlarni taqdim etadigan" onlayn jurnal "deb ta'rif beradi"¹⁶.

¹² Embong A. M. at all. (2012). E-Books as textbooks in the classroom. *Procedia - Social and Behavioral Sciences*, 47, 1802-1809.

¹³ Edstrom, R. M. "Increasing Joy and Motivation Through Experiential Art Curriculum" (2016). *School of Education Student Capstone Theses and Dissertations*. 4229.

¹⁴ Gardner, H. (1973). *The Arts and human development*. New York, NY: Wiley.

¹⁵ Gude, O. (2007). *Principles of Possibility: Considerations for a 21st Century Art and Culture Curriculum*. *Art Education*, 6-13.

¹⁶ Guillard-Patton, R. (2012). *Art Games: Creating Video Games Within an Art Curriculum*.

Bloglarning o'ziga xosligi - o'zaro ta'sir va ixchamlik - bu onlayn ta'lim uchun ikkita muhim so'z. Bloglar yordamida savollar berish yoki munozarada qatnashish uchun taklif qilish-talabalar bilan aloqada bo'lishning samarali strategiyasidir¹⁷.

Taqdimotlar. Maxsus ilovalar yordamida tayyorlanadigan taqdimotlar bugungi kun ta'lim jarayonining uzviy qismiga aylanib ulgurgan. Bu borada o'tkazilgan tadqiqotlar ham taqdimotlardan foydalanib o'tkaziladigan ta'lim metodlari samarali ekanligini ko'rsatgan. Mazkur texnologiyalardan nazariy shakldagi darslarning mavzuga kirish va mustahkamlash bosqishlarida birdek foydalanilishi mumkin.

Onlayn darslarni tashkil etish uchun maqbul raqamli texnologiyalar:

Dunyo miqyosida keng tarqalgan pandemiya sharoiti barchada onlayn darslarga bo'lgan ehtiyojni oshirib yubordi. Ayniqsa, amaliy bajarish bilan bog'liq darslar, xususan, musiqa ta'limi onlayn o'qitish o'qituvchidan yanada ko'rroq bilim va kreativlikni talab qiladi.

Onlayn ta'lim, an'anaviy masofaviy ta'lim amaliyotining evolyusiyasi deb tushunish mumkin emas. Aksinsha, bu raqamli texnologiyalar vositasida yuzma-yuz, onlayn yoki gibril (onlayn va yuzma-yuz) ta'lim usullarini o'z ichiga olgan va takomillashtiradigan ta'lim uslubidir¹⁸.

Hozirda O'zbekistonda oshiq elektron ta'lim platformalari (LMS-Learning Management System) tarkibiga kiruvshi-**Moodlye**, **Google slassroom** hamda **Zoom** kabilardan keng foydalanilmoqda.

Onlayn ta'lim tizimining yana bir ajralmas qismi bu-bulutli xotiradir. Bulutli xotira-bu bulutli hisoblash modeli bo'lib, unda ma'lumotlar Internetdan yoki "bulut"dan kirish imkoni bo'lgan serverlarda saqlanadi. Ular virtualizatsiya texnikasi asosida yaratilgan saqlash serverlarida bulutli saqlash xizmati provayderi tomonidan saqlanadi va boshqariladi. Uning musiqa ta'limidagi o'ziga xosligi shundaki, darslar uchun tayyorlangan o'quv materiallarini ana shu bulutli xotirada saqlash orqali uzoq muddatli amaliy ishlarni bajarishda foydalanish va tayyorlangan ishlarni cheklanmagan vaqt ichida nazorat qilib borish mumkin. Qolaversa, bulutli xotiraning shaxsiy, ommabor va gibril turlarga bo'linishi ma'lumotlar xavfsizligini istalgancha boshqarish imkonini beradi.

Bugungi kunda virtualashtirishni qamrab oladigan va bulutli xotiradan ta'lim olishda foydalanadigan ta'lim muassasalarining misollari juda ko'p. Ko'pchilik tadqiqotchilar markazlashtirilgan virtual ma'lumotlar markazi asosida talabalar tajribasini yanada oshirish usullarini o'rganmoqdalar¹⁹.

Yuqorida biz ko'rib chiqqan ta'lim tizimida foydalanilayotgan raqamli texnologiyalar asosan ta'lim jarayonini tashkil etish uchun maqbul vosita bo'lib, uning asosiy boshqaruvchisi va tashkil etuvchisi bu fan o'qituvchisidir. Mazkur texnologiyalardan foydalanish va ularni darslarga o'quv materiallarini tayyorlashda qo'llash o'qituvchining zamonaviy texnologiyalardan foydalanish kompetensiyalarini shakllantiradi.

Xulosa qilganda, talabalarda milliy musiqiy merosni asrab-avaylashga doir bilimlarini rivojlantirishda aksiologik yondashuv yuqori samaradorlikka ega. Chunki musiqiy merosni asrab-avaylash aksiologik munosabat va baho asosida shakllanadi. Bo'lajak musiqa o'qituvchisi o'zining kasbiy faoliyatida qadr va qimmatlilikni anglasa, unda asrab-avaylash uchun motiv shakllanadi.

ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Зинченко В.П. Человек развивающийся. Очерки российской психологии. – М.: Тривола, 1994. – С.304.
2. Маннопов С. Ўзбек халқ музыка мданаяти. –Т.: Янги аср авлоди. 2004. бет 84.
3. Парсонс Т.О структуре социального действия. – 2-е изд. – Москва.: Академический проект, 2000. – С. 200-203.
4. Rokeash M. The role of values in rublis orinion researsh // The Rublis Orinion Quarterly. Vol. 32. No. 4. – R. 547-559.
5. Ходжаев Б. Педагогик аксиология.- Т: "Fan va texnologiya", 2012. – бет 17.

¹⁷ Hackett, P. M. W. (2016). Psychology and philosophy of abstract art: Neuro-aesthetics, perception and comprehension. London: Springer Nature.

¹⁸ Jackson, T. A. (1999). Ontological Shifts in Studio Art Education: Emergent Pedagogical Models. Art Journal, 2.

¹⁹ Jimin Cho, J. H. (2017, 12 20). New Education Policies and Practices in South Korea. Retrieved from <https://bangkok.unesco.org/>: <https://bangkok.unesco.org/content/new-education-policies-and-practices-south-korea>

6. Яковлев Е.В. Реализация аксиологического подхода в педагогическом исследовании // Вестник ЮУрГУ. Серия: Образование. Педагогические науки. – 2012. – № 4(263). – С. 26-29.
7. Efland, A., Freedman, K., & Stuhr, R.(1996). Rostmodern art edusation: An arroash to surrisulum. Reston, VA: National Art Edusation Assosiation.
8. Embong A. M. at all. (2012). E-Books as textbooks in the slassroom. Rrosedia - Sosial and Behavioral Ssienses, 47, 1802-1809.
9. ¹Edstrom, R. M. "Insreasing Joy and Motivation Through Exreriential Art Surrisulum" (2016). Sshool of Edusation Student Sarstone Theses and Dissertations. 4229.
10. Gardner, H. (1973). The Arts and human developoment. New York, NY: Wiley.
11. ¹Gude, O. (2007). Rrinsirles of Rossibility: Sonsiderations for a 21st Sentury Art and Sulture Surrisulum. Art Edusation, 6-13.
12. Guillard-Ratton, R. (2012). Art Games: Sreating Video Games Within an Art Surrisulum.
- 13.Haskett, R. M. W. (2016). Rsyshology and rhilosorhy of abstrast art: Neuro-aesthetiss, rsertion and somrrehension. London: Srringer Nature.
14. Jaskson, T. A. (1999). Ontologisal Shifts in Studio Art Edusation: Emergent Redagogisal Models. Art Journal, 2.
15. Jimin Sho, J. H. (2017, 12 20). New Edusation Rolisies and Rrastises in South Korea. Retrieved from [httrs://bangkok.unesso.org/](https://bangkok.unesso.org/): [httrs://bangkok.unesso.org/sontent/new-edusation-rolisies-and-rrastises-south-korea](https://bangkok.unesso.org/sontent/new-edusation-rolisies-and-rrastises-south-korea)